

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

## QUR’ONI KARIMDA RANGLAR JILOSI

Nasiba Qurbonova

Buxoro davlat universiteti Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti  
[nqurbonova108@gmail.com](mailto:nqurbonova108@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ranglar semantikasi, asliy va hosila ma’nolar, Qur’oni Karimda ranglarning berilishi va ular anglatgan ma’nolar xususida fikr yuritilgan. Ranglar ifodalangan oyatlar ketma-ketlikda keltirilib, ma’nolari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** rang, semantika, Qur’oni Karim, oyat, sura, zikr, ma’no.

**Abstract:** This article discusses the semantics of colors, original and derived meanings, the presentation of colors in the Holy Quran and the meanings they convey. The verses in which colors are mentioned are presented in sequence and their meanings are analyzed.

**Keywords:** color, semantics, Holy Quran, verse, sura, mention, meaning.

**Абстрактный:** В данной статье рассматривается семантика цветов, первоначальные и производные значения, представление цветов в Священном Коране и их значения. Стихи с цветами представлены последовательно и проанализированы их значения.

**Ключевые слова:** цвет, семантика, Священный Коран, аят, сурa, зикр, смысл.

Insoniyat yaratilibdiki, borliqdagi har bir predmetni ranglar orqali ko‘radi. Bu ajib olamga hamma o‘z ko‘zi bilan qaraydi va o‘z nazdidan kelib chiqqan holda baholaydi. Hayotimizni serjilo va qiziqarli qiladigan asosiy vositalardan biri bu ranglardir. Yer yuzida istalgan millat, elat vakilining lisoniy olam manzarasini ranglar va ular ifoda qilgan ma’nolarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Mutaxassislarning ma’lumotlariga ko‘ra, chaqaloq dunyoga kelgach bir haftagacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida tevarak atrofdagi ranglarni farqlay boshlar ekan. Tabiiyki, sog‘lom bola 2-3 oyligidanoq onasi kiygan kiyim ranglarini ham farqlay boshlaydi. Shu tariqa inson umrining oxirigacha ranglar bilan uyg‘un tarzda yashaydi. Tilshunoslikda rang ma’nosini ifodalovchi so‘zlar asliy hamda hosila ranglarga bo‘lib o‘rganiladi. Ushbu rang bildiruvchi so‘zlar nutqda, ayniqsa, badiiy matnda keng qo‘llaniladi va xalqning boy merosini, ijtimoiy-maishiy turmush tarzi to‘g‘risidagi madaniy ma’lumotlarni kelajak avlodlarga yetkazib berishga vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ranglar olamning badiiy manzarasini yaratishda faol ishtirok etadi. Insonlar rangni fizik nuqtayi nazardan bir xil anglaydilar, ammo ranglarni qabul qilish farqli bo‘ladi (Yevropa madaniyatida oq rangdagi kiyim soflikni, tozalikni, bayram, quvonchni bildiradi, sharq xalqlarida “o‘lim”, “motam”, “g‘am”; tushunchalarini ifoda etadi). Rus tilida “sog‘inch” ramzi yashil rang bilan, ingliz tilida ko‘k, havorang bilan anglashiladi<sup>1</sup>. Bundan tashqari, yana bir tilshunos olim A.N. Kononov turkiy tillarda belgi

<sup>1</sup> Мишенкина А.Национально-специфическая характеристика концепта “Свет-цвет” в русской и английской лингвокультурной картине мира: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Ярославль, 2006. – С.14

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

bildiruvchi leksemalarning, xususan, rangni ifodalovchi soʻzlarning tadqiqi bilan shugʻullanib, *qora* va *oq* ranglarning semantik jihatlarini tahlil qilgan. Olim *qora* leksemasi semantikasida *большой* (*katta*), *крупный* (*yirik*), *роскошный* (*muhtasham*), *-великий* (*ulugʻ*), *могущественный* (*qudratli*), *сильный* (*kuchli*), *чистый* (*pokiza*), *прозрачный* (*musaffo*), *суща* (*quruqlik*), *земля* (*yer*), *тьма* (*zulmat*) kabi semalar ifodalanganligini misollar orqali yoritgan.<sup>2</sup>

Tabiatni kuzatar ekanmiz, bizni qurshab turgan olam turli-tuman ranglardan iborat ekanligini koʻrib hayratga tushamiz. “Bu ranglarda qanchalik ma’no yotadi?” – deya oʻyga toladi baʼzan kishi. Ajdodlarimiz ham tabiatning bu sirli olamidani hayratga tushib, asrlar davomida uni oʻrganishga harakat qilib kelishmoqda. Muqaddas kitobimiz boʻlmish “Qur’oni Karim”da ham rang moʻjizalari haqida quyidagi falsafiy fikrlar bildirilgan: “*Ollohdan ham goʻzalroq rang beruvchi bormi?*”<sup>3</sup> yoki “*...ranglari turli boʻlgan mevalarni chiqarganimizni koʻrmadingizmi?!*”, yana ... *togʻlarning oq, qizil, rang-barang yoʻl-yoʻlisi ham, til qorasi ham bordir*”<sup>4</sup>. “*Shuningdek odamlar, jonivorlar va chorva hayvonlari orasida ham turli ranglilar bordir*”<sup>5</sup>. Ranglar Olloh taolloning bizga bergan ulugʻ va rohatbaxsh neʼmatlaridan biri sanaladi. Qur’oni Karimning bir qator oyatlarida sakkiz rang zikr qilingandir. Bular:

1. Sariq
2. Oq
3. Qora
4. Yashil
5. Koʻk
6. Qizil
7. Qirmizi
8. Yam-yashil ranglardir.

Sariq rang Qur’oni Karimning 5 oyatida 5 marta zikr etilgan:

“**Baqara**” surasi, 69-oyat ular: «*robbingga duo qil, uning rangini bayon qilib bersin*», dedilar. u: «*u, rangi sap-sariq, qaraganlarni xursand qiladigan sigir, deyapti*», dedi., “**Rum**” surasi, 51-oyat “*Agar biz bir shamol yuborib, ular*

<sup>2</sup> Кононов А.Н. О семантике слов кара и ак в тюркской географической терминологии / Изв. АН Тадж.ССР. Отделение общественных наук. Вып. V. –Душанбе, 1954. – С. 83 – 85.

<sup>3</sup> Курьони карим ( таржима ва тафсирлар муаллифи Абдулазиз Мансур)- “Тошкент ислом университети” нашриёт-матба бирлашмаси, 2014. Бакара сураси, 138 оят.

<sup>4</sup> Курьони карим ( таржима ва тафсирлар муаллифи Абдулазиз Мансур)- “Тошкент ислом университети” нашриёт-матба бирлашмаси, 2014. Фотир сураси, 27 оят.

<sup>5</sup> Курьони карим ( таржима ва тафсирлар муаллифи Абдулазиз Мансур)- “Тошкент ислом университети” нашриёт-матба бирлашмаси, 2014. Фотир сураси, 28 оят.

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

(ekinlarini) sarg‘aygan holda ko‘rsalar, undan keyin, albatta, kufroni ne‘mat qilishga o‘tarlar. (alloh issiq shamol esdirib, ekinlarini sarg‘aytirib qo‘ysa, allohga va uning qazoi qadariga ishonmaydiganlar noumid bo‘lib, kufroni ne‘mat qiladilar.)”.**“Zumar” surasi, 21-oyat** “Alloh osmondan suv tushirib, uni yerdagi manba‘lardan yuritib qo‘yganini ko‘rmadingmi?! so‘ngra u ila turli rangdagi ekinlarni chiqarur. keyin u quriydir. bas, uni sarg‘aygan holda ko‘rarsan. so‘ngra uni quruq cho‘pga aylantirur. albattta, bunda aql egalari uchun eslatma bordir”.

**“Hadid” surasi, 20-oyat** “Bilingki, albatta, bu dunyo hayoti o‘yin, ko‘ngil ermagi va zeb-ziynatdan, o‘zaro faxrlanishdan, mol-mulkni va bola-chaqani ko‘paytirishdan iboratdir. xuddi o‘simligi dehqonlarni ajablantirgan yomg‘irga o‘xshaydir. keyinroq bu o‘simliklar quriydir va sarg‘ayganini ko‘rsan. u so‘ngra xas-cho‘pga aylanib ketadir. oxiratda esa qattiq azob bor, allohdan mag‘firat va rozilik bor. bu dunyo hayoti g‘ururga ketgazuvchi matodan o‘zga hech narsa emas”.

**“Mursalat” surasi, 33-oyat** “u (uchqun) xuddi qoramtir-sarg‘ish tuyalarga o‘xshaydir”.

Sariq rang qur‘oni karimda quyidagi ma‘nolarda qo‘llanilgan:

1. hayvonga nisbatan ishlatilganda:

“sariq rang insonga surur bag‘ishlaydi”, degan ma‘noda qo‘llanilgan.

2. shamolga nisbatan ishlatilganda:

“buzish, vayron qilish” ma‘nolarini anglatadi.

3. dehqonchilikka nisbatan qo‘llanilganda “qurib qolib, yo‘q bo‘lish” kabi ma‘nolarni bildiradi<sup>6</sup>. Oq rang Qur‘oni Karimning 8 oyatida 8 marta zikr etilgan:

**“Baqara” surasi, 187-oyat** “sizlarga ro‘za kechasida tong paytida oq ip qora ipdan ajraguncha yeb-ichavering. so‘ngra ro‘zani kechasigacha batamom qiling”.

**“Oli Imron” surasi, 106-oyat** “yuzlar oq va yuzlar qora bo‘ladigan kunda yuzlari qora bo‘lganlarga: «iymoningizdan keyin kofir bo‘ldingizmi?! kufr keltirgan bo‘lganingiz uchun azobni tatib ko‘ring», deyilur”. **“Oli Imron” surasi, 107-oyat**

“yuzlari oq bo‘lganlar esa, bas, allohning rahmatidadirlar. ular unda abadiy qohurlar”. **“Yusuf” surasi, 84-oyat** “Va ulardan yuz o‘girdi hamda: «oh, Yusuf!!!» deb ko‘zlariga oq tushdi. bas, u dardini yutuvchidir”.

**“Toha” surasi, 22-oyat** “Qo‘lingni qo‘ltig‘ingga tiq, yomonliksiz oppoq bo‘lib chiqadi. bu boshqa bir mo‘jizadir”. **“Qasas” surasi, 32-oyat** «Qo‘lingni yoqangdan (qo‘ltig‘ingga) suq, biron nuqsonsiz oppoq bo‘lib chiqur va qo‘rquvda qanot(qo‘l)ingni o‘zingga tortib ol. bas, shu ikkisi robbingdan fir‘avn va uning odamlariga ikki hujjatdir. albatta, ular

<sup>6</sup> Muftiy Abdulmatin. Al-Amsal va al-alvan fi al-Qur‘an al-karim. - Karachi: Maktabai Umar faruq, 2010. - B. 178-179.

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

fosiq qavm bo‘ldilar» (deyildi). **“Fotir” surasi, 27-oyat** “Allohning osmondan suv tushirganini ko‘rmadingmi? bas, u ila turli ranglardagi mevalarni va tog‘lardan ham yo‘l-yo‘l, oq hamda qizilning turli ranglarini va qop-qoralarini chiqardik”. **“Soffaat” surasi, 46-oyat** “U oppoq ichuvchi uchun lazzatbaxshdir”.

Qur’oni Karimda oq rang quyidagi ma’nolarda qo‘llanilgan:

- tunning tongga almashish payti;
- iymonli insonlarning yuziga;
- ayriliqdan ko‘ziga oq tushishga;
- gunohsiz kishilarning qo‘liga.

Qora rang Qur’oni Karimning 7 oyatida 8 marta zikr qilingan:

**“Baqara” surasi, 187-oyat** “Sizlarga ro‘za kechasida tong paytida oq ip qora ipdan ajraguncha yeb-ichavering. so‘ngra ro‘zani kechasigacha batamom qiling”. **“Oli Imron” surasi, 106-oyat** “Yuzlar oq va yuzlar qora bo‘ladigan kunda yuzlari qora bo‘lganlarga: «iymoningizdan keyin kofir bo‘ldingizmi?! Kufr keltirgan bo‘lganingiz uchun azobni tatib ko‘ring», deyilur”. **“Nahl” surasi, 58-oyat** “Qachonki ulardan biriga qizning xushxabari berilsa, g‘am-alamga to‘lib, yuzi qorayib ketur. **“Fotir” surasi, 27-oyat** allohning osmondan suv tushirganini ko‘rmadingmi? bas, u ila turli ranglardagi mevalarni va tog‘lardan ham yo‘l-yo‘l, oq hamda qizilning turli ranglarini va qop-qoralarini chiqardik. **“Zumar” surasi, 60-oyat** “Qiyomat kuni allohga nisbatan yolg‘on so‘zlaganlarni ko‘rsang, yuzlari qop-qoradir. Yoki mutakabbirlarning joyi jahannamda emasmi?!” **“Zuxruf” surasi, 17-oyat** “Qachonki ulardan birortasiga, rohmanga misol keltirgan narsaning xushxabari berilsa, g‘azabga to‘lib, yuzi qorayib ketur. **“A’laa” surasi, 5-oyat** “Bas, u uni qoraygan xashak qilgan zotdir.

Qur’oni Karimda qora rang quyidagi ma’nolarda qo‘llanilgan:

- tun zulmati;
- jahannam ahlining rangi;
- mahzunlik, g‘am-tashvish;
- qurigan va yo‘q bo‘lgan narsalar.

Yashil rang Qur’oni Karimning 7 oyatida 7 marta zikr qilingan:

**“An’om” surasi, 99-oyat** “U osmondan suv nozil qilgan zotdir. bas, u (suv) ila turli nabototlar chiqardik: undan yashil giyohlarni chiqardik. undan g‘ujum-g‘ujum boshhoqlar chiqaramiz. Va xurmodan, uning novdalaridan yaqin shingillar chiqaramiz va uzum bog‘lari chiqaramiz. bir-biriga o‘xshagan va o‘xshamagan zaytun va anorlarni chiqaramiz. Uning meva qilish paytidagi mevasiga va pishishiga nazar soling. Albatta, bunday narsalarda iymon keltiradigan qavm uchun oyat-

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

belgilar bordir”. **“Yusuf” surasi , 43-oyat** “Podshoh: «men tushimda yettita semiz sigirni yettita oriqliq sigir yeyayotganini va yettita yashil boshoqni va shuncha qurug‘ini ko‘rmoqdaman. Ey a‘yonlar, agar tush ta‘birini qiladigan bo‘lsangiz, menga tushimning fatvosini bering», dedi”. **“Yusuf” surasi, 46-oyat** “Yusuf, ey rostgo‘y zot, bizga yettita semiz sigirni yettita oriqliq sigir yeyayotganini va yettita yashil boshoqni va shuncha qurug‘ining ta‘birini ayt. shoyadki odamlarga qaytib borsam, ular ham bilsalar”, dedi. **“Haj” surasi, 63-oyat** “Alloh osmondan suv tushirganida, yerning yam-yashil bo‘lishini ko‘rmadingmi?! albatta, alloh o‘ta lutfli va xabardor zotdir”. **“Yasin” surasi, 80-oyat** “U Zot sizlarga yashil daraxtdan olov qilib bergandir. endi esa, siz undan olov yoqmoqdasiz. (U Zot shunday qudratli zotki, ba‘zi narsalarni o‘ziga qarama-qarshi tomondan ham chiqaraveradi. misol uchun, yam-yashil daraxtni olaylik. u ho‘l bo‘ladi. Tarkibida suv bor. Suv esa, olovni o‘chiradi. Ammo alloh taolo olovga ters bo‘lmish ho‘l daraxtni bir-biriga ishqasa, o‘t chiqaradigan holga keltirib qo‘ygandir. Olovga yoqilg‘ini ham o‘sha daraxtning o‘zidan qilib qo‘ygandir. Bu ulkan bir mo‘jizaga odamlar e‘tibor bermaydilar.)” **“Rahmon” surasi, 76-oyat** “Yashil bolishlarga va go‘zal gilamlarda yonboshlagan hollari bor”. **“Inson” surasi, 21-oyat** “Ularning ustilarida yashil sundusdan (yupqa ipakdan) va istobraqdan (qalin ipakdan) kiyimlar bor va kumush bilakuzuklar-la yasanganlar va robbilari ularni pok sharob bilan sug‘orar”.

Qur‘oni Karimda yashil rang quyidagi ma‘nolarda qo‘llanilgan:

- yomg‘irdan keyingi daraxt, ekinzor va yerning rangi;
- jannat ahli libosining rangi;
- jannatdagi mangu yoshli bolalar libosining rangi;
- jannat ahliga beriladigan yostiqlar jildining rang<sup>7</sup>.

Ko‘k rang Qur‘oni Karimning 1 oyatida 1 marta zikr qilingan:

**“Toha” surasi, 102-oyat** “U kun surga puflanadigan kundir. o‘sha kunda jinoyatchilarni ko‘zlari ko‘k bo‘lgan holda to‘plarmiz. (Qiyomatning kelganini bildirib, sur chalinadi. O‘sha qiyomat kunida kofirlar-jinoyatchilarni alloh taolo qo‘rquvdan yuzlari qorayib, ko‘zlari ko‘karib ketgan ketgan hollarida mahsharga jamlaydi)”.

Qur‘oni Karimda ko‘k rang quyidagi ma‘nolarda qo‘llanilgan:

- mahshar maydonidagi imonsizlar yuzining rangi. Ya‘ni qiyomatning dahshatidan ularning yuzi ko‘karib ketadi.
- qo‘rquv, dahshat va hadik rangi<sup>8</sup>.

<sup>7</sup> Muftiy Abdulmatin. Al-Amsal va al-alvan fi al-Qur‘an al-karim. - Karachi: Maktabai Umar farua, 2010. B. 193-195.

<sup>8</sup> Muftiy Abdulmatin. Al-Amsal va al-alvan fi al-qur‘an al-karim.2010. -B.198-199.

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Qizil rang Qur’oni Karimning 1 oyatida 1 marta zikr qilingan:

“**Fotir**” surasi, 27-oyat “*Allohning osmondan suv tushirganini ko’rmingmi? bas, u ila turli ranglardagi mevalarni va tog’lardan ham yo’l-yo’l, oq hamda qizilning turli ranglarini va qop-qoralarini chiqardik*”.

Qur’oni Karimda qizil rang quyidagi ma’nolarda qo’llanilgan:

- ayrim tog’larning rangi;

- daraxtlardagi mevalar rangi<sup>9</sup>.

- Qirmizi rang Qur’oni Karimning 1 oyatida 1 marta zikr qilingan:

“**Rahmon**” surasi, 37-oyat “*Osmon yorilib, qirmizi moyga aylangan vaqtda...*”

Qur’oni Karimda qirmizi rang quyidagi ma’noda qo’llanilgan:

- osmonning qiyomat kunidagi rangi<sup>10</sup>.

Yam-yashil rang Qur’oni Karimning 1 oyatida 1 marta zikr qilingan:

“**Rahmon**” surasi, 64-oyat “*Ikkovlari yam-yashildir*”.

Qur’oni Karimda yam-yashil rang quyidagi ma’noda qo’llanilgan:

- jannatdagi yashil rangning qora rangga moyil bo’lgan holati. ya’ni jannatdagi bog’-u rog’lar shu darajada yashilki, qora rangga moyil bo’lib, yam-yashil tus oladi<sup>11</sup>.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, rang o’zida hissiy, semantik, ramziy, estetik, madaniy axborotni saqlaydigan fenomen hisoblanadi, ya’ni biz ranglar orqali har bir soha, har bir jabhalarni yanada yorqinroq tasvirlay olamiz. Buni biz dinimizning bosh kitobi bo’lmish Qur’oni Karim orqali ham ko’rib o’tdik. Ranglar semantikasidagi madaniy-tarixiy taraqqiyot ranglar ramzida universal jihatlar borligini ko’rsatadi. Ranglar semantikasi nuqtqimizni yanada boy va jozibador qiladi. U zamon va makon tanlamaydigan madaniyatning bir bo’lagidir.

## Adabiyotlar:

1. Мишенкина А.Национально-специфичекая характеристика концепта “Свет-цвет” в русской и английской лингвокультурной картине мира: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Ярославль, 2006. – С.14.
2. Muftiy Abdulmatin. Al-Amsal va al-alvan fi al-Qur’an al-karim. - Karachi: maktabi Umar faruq, 2010. - v. 178-179.
3. Кононов А.Н. О семантике слов кара и ак в тюркской географической терминологии / Изв. АН Тадж.ССР. Отделение общественных наук. Вып. V. –Душанбе, 1954. – С. 83 – 85.
4. Курьони Карим (таржима ва тафсирлар муаллифи Абдулазиз Мансур)- “Тошкент ислом университети” нашриёт-матба бирлашмаси, 2014.
5. <https://quronvasunnat.uz/>

<sup>9</sup> Muftiy Abdulmatin. Al-Amsal va al-alvan fi al-Qur’an al-karim. 2010.- B.199

<sup>10</sup> Muftiy Abdulmatin. Al-Amsal va al-alvan fi al-Qur’an al-karim.2010. - B. 200.

<sup>11</sup> Muftiy Abdulmatin. Al-Amsal va al-alvan fi al-Qur’an al-karim.2010.- B.201.